

"Boburnoma" asarida uchraydigan shaxs otlari va ularning ma'noviy guruhlari"

Juraqulov Mirjalol

BuxDu filologiya va tillarni o'qitish(o'zbek tili) fakulteti 3-kurs talabasi

ANNATOTSIYA

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning " Boburnoma" asaridagi uch bob bo'yicha tahlillar amalga oshirilgan bo'lib, tahlillar asosan shaxs otlari mavzusiga doirdir.Maqolada boblar tarkibidagi shaxs otlarining barchasi tahlilga tortilmadi, aksincha shaxs otlarining arxaik va tarixiy namunalari bo'yicha tahlillar qilindi

Kalit so'zlar: sarkarda, shoir, tarixchi, geograf, atoqli, mavhum, shaxs, arxaik, kasb.

ABSTRACT

In this article, three chapters of Zahiriddin Muhammad Babur's "Baburnoma" have been analyzed, and the analyzes are mainly related to the subject of personal nouns. In the article, not all personal nouns in the chapters were analyzed, on the contrary, archaic and historical examples of personal nouns were analyzed.

Key words: general, poet, historian, geographer, famous, abstract, person, archaic, profession.

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, temuriy shoh,geograf, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammmad Bobur o'zining ulkan ilmiy me'rosi bilan jamiyatimizdagi ko'plab sohalarga katta va samarali hissa qo'shgan hisoblanadi. Xususan, uning bizga ma'lum va mashhur hisoblangan "Boburnoma" asarida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda biz Bobur Mirzoni "Qomusiy olim" darajasiga ko'tarsak mubolag'a bo'lmaydi. Biz,ushbu asarni o'qish jarayonida Boburning shoirona nafosatiga, tarixchilik uslubi, yuksak podshohlik xislati va sarkardalik mahoratiga hamda tabiiy fanlar xususan geografiya va biologiya fanlarining ixlosmandi ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Biz o'ziga xos uslub bilan yozilgan ushbu asarning uch bobi(1493-yili, 1494-1495-yillari va 1495-1496- yillar)dagi voqealarda keltirilgan shaxs otlarining ayrimlarini tahlil qilib o'tdik. Asosan, voqealarda qo'llanilgan arxaik yoki tarixiy so'zlar ma'noviy guruhlarga ajratilgan holda tahlil qilindi.

ASOSIY QISM

"Ot borliqdagi bir turdag'i predmetdan birining yoki shu turdag'i predmetlarning umumiyl nomini bildirishiga ko'ra atoqli va turdosh otlarga bo'linadi"[1,233]. "Turdosh otlar ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra muayyan va mavhum otlarga bo'linadi" [2,134].

Muayyan otlar esa lug‘aviy-ma’noviy turlariga ko‘ra asosiy sakkiz turga bo‘lingan bo‘lib, ularning orasida “*Shaxs tavsifi nomi*”[1,235] ham mavjud. Tahlil jarayonida shaxs tavsifi nomining quyidagi lug‘aviy-ma’noviy guruhlaridan foydalanildi:

1. Shaxsning qarindoshlik jihatdan tavsiflanishi;
2. Shaxsni kasb jihatdan tavsiflash;
3. Shaxsni tashqi belgilari jihatdan tavsiflash kabitdir.[1,235].

Shaxsning qarindoshlik jihatdan tavsiflaganimizda asarning uch bobি tarkibida quyidagi arxaik va tarixiy so‘zlarga guvoh bo‘ldik:

- **ulug‘ ona** – otasining yoki onasining onasiga nisbatan ishlataladi va “katta ona” degan ma’noni anglatadi. “*Yodgor Sultonbegimni mening ulug‘ onam Esan Davlatbegim saqlab edi*”[2,12].
 - **og‘a** – bir ota-onadan tug‘ilgan katta o‘g‘il(3). “Biror oilaning kichik farzandlari o‘zidan katta o‘g‘ilga nisbatan “og‘a”(“aka”) deya murojaat qilishgan. “*Necha mahal Toshkent va Sayram ham mirzoning tasarrufida edikim, og‘asi Sulton Ahmad mirzo berib edi*”[2,11].
 - **tog‘oyi** – ayolning aka-ukalari(3). Biror oila farzandi onasining aka yoki ukasiga “tog‘oyi”(“tog‘a”) murojaat shakli bilan murojaat etadilar: “*Bu fursatga mo‘gul ulusining xon va sultonlig‘i Yunusxonning ulug‘ o‘g‘li – mening tog‘oyim Sulton Mahmudxonda edi...*”[2,9].
 - **egachi** – bir ota-onadan tug‘ilgan qizlarning eng kattasi(3). Biror oiladagi kichik farzandlar o‘zlaridan katta qiz farzandga nisbatan “egachi”(“opa”) murojaati shaklini qo‘llangan hamda bu shakl hozirda adabiy tilimizda qo‘llanilmaydi. “*Bu shohning yana bir qizikim, Shohbeginning egachisi bo‘lg‘ay, Sulton Abusaid mirzo olibdi*”[2,14]. Boblar tarkibida nomi hozirgi zamon kishilari uchun deyarli ma’lum bo‘lmagan va hozirda adabiy tilimizda qo‘llanmaydigan quyidagi shaxs kasblariga guvoh bo‘ldik:
 - **dodxohlik** – arz-dodga kelish,adolat talab qilish(4); “... bu xotunning eri Xisravshohg‘a kelib dodxohlik qilur ...”[2,24].
 - **chuhra** – tanqo‘riqchi(4). “*Yana bir Ayub edi. Sulton Abusaid mirzo qoshida Xuroson chuxrasi chargasida xizmat qilur edi*”[2,29].
 - **g‘unchachi** – kaniz, cho‘ri (4); “*Yana bir o‘g‘ul Nosir mirzo edi, onasi Andijonliq edi, g‘unchachi edi, Umid otliq. Mendin to‘rt yosh kichik edi*”[2,11].
- Shaxsni tashqi belgilari jihatdan tavsiflaganimizda asar boblarida quyidagi nomlarga guvoh bo‘ldik:

- **darvesh** – (forscha – kambag‘al, qashshoq). O‘zini Alloh yo‘lida xizmat qilishga bag‘ishlagan va o‘zini o‘zi kamolotga yetishtirish yo‘liga kirgan inson(*). “*Derlarkim, bir necha darvesh bu bodyada tund elga yo‘luqub, bir-birlarini topolmay, “Ho,darvesh”, “Ho,darvesh”, deya-deya halok bo‘lubturlar, andin beri bu bodyani Hodarvesh derlar”*[2,8].
- **bo‘ka** – “ *O‘zbak zo‘r kishini bo‘ka der emish. Jonibek derkim: bo‘kamusen? Bo‘ka bo‘lsang, kel kurashaling*”[2,21].

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerak-ki, “Boburnoma”ning uch bobি tarkibidan olinib tahlilga tortilgan misollarning ayrimlari hozirda iste’molda, ayrimlari fonetik o‘zgarishga uchragan boshqalari esa umuman qo‘llanilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLART:

1. Sayfullayeva R.R. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili[Matn]: darslik. Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdon nshriyoti,2021. 456 b.
2. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma: [O'rta yoshdagi mакtab bolalari uchun] / [Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev; Muhamarrir A. O'ktamov]. T: Yulduzcha. 1898.
3. Elektron izohli lug'at
- 4.Fathiddin Ishoqov. Boburnoma uchun qisqacha izohli lug'at-Andijon, " Andijon nashriyot-matbaa" OAJ,2008.